




San'atni ulug'lash

Hurmatli oilalar va hamkasblar,

O'qituvchi va ota-ona sifatida men san'atning yoshlarga tengsiz ijobiy ta'sir o'tkazishiga o'z ko'zim bilan guvoh bo'lganman. O'quvchilar san'atni o'rganganda hamda mo'yqalam yoki rekvizitlar, kamera yoki klarnet bilan ishlaganda, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va ijodkorligi keng quloch otadi.

Shu sababli, men Nyu-York shahar davlat maktablarida (NYCPS) san'at fanlarini targ'ib qilish uchun qilayotgan ishlarimizdan, maktabimiz hamjamiyatini yanada yorqin va jonli joylarga aylantirganimizdan g'ururlanaman. 2023-24 va 2024-25 o'quv yillari orasida biz san'at fanlariga ajratiladigan mablag'larni oshirdik hamda tizimimizda to'liq stavkada ishlaydigan san'at fanlari o'qituvchilari sonini ko'paytirdik. Biz Bruklindagi NYCPS sa'nat markazi bo'lgan ArtsHubga sarmoya kiritdik va u yerda o'quvchilar professional ijodkorlar bilan aloqa qilishi hamda o'qituvchilar maktablarida san'at fanlarini markazlashtirishda yordam olishi mumkin. Undan tashqari, biz Student Arts Pathways (O'quvchilar uchun san'at yo'nalishlari) dasturini kengaytirdik, jumladan, Pre-K o'quvchilariga skripkada chalish darslari, yozgi san'at dasturi va tumanlararo stilpan va baraban festivallarini kiritdik.

Nyu-York shahri kabi madaniyatlar markazida ijodkorlik ruhini har yerda ko'rasiz va men ushbu ruhiyatni sinflarga olib kirishda yordam berayotgan o'qituvchilar, hamjamiyat hamkorlari, mablag' bilan ko'mak berayotgan odamlar va boshqalarga tashakkur izhor qilaman. Siz har kuni o'quvchilarimizga o'z ovozi topishga va yangi sohalarga muhabbatini kashf etishiga hissa qo'shasiz.

Hamkorlikda,


Melissa Aviles-Ramos
Maktablar tizimi rahbari

Kansler diqqat markazida

Bu haftada biz NYCPS markaziy idoramizda san'at fanlarining ijobiy ta'sirini ulug'lashga qaratilgan yillik [Maktablarda san'at fanlari tadbirini](#) o'tkazdik. Tadbirdan Jazz House Teacher Fellows tomonidan chiqish o'rin oldi. Bu hamjamiyatni shakllantirish va mashg'ulotlar ko'lamini kengaytirish uchun Nyu-York shahar davlat maktablaridagi musiqa o'qituvchilarining yangi uyushmasidir. Tadbirga oid qisqacha syujet bilan tanishish uchun asosiy lahzalardan iborat videoni tomosha qiling.

Rektorning diqqat markazida bo'lgan shaxs yoki dasturni [bu yerda](#) ko'rsating.

Asosiy lahzalardan iborat videomiz:



Tarjimalar uchun [YouTube](#) sahifamizga kiring.

Tarjima qilingan taglavhalarga kirish uchun: "CC" belgisini bosing. "Sozlash" belgisini bosing va "Taglavhalar/CC" bandini tanlang. "Avtomatik tarjima qilish" bandini tanlang va tilingizni tanlang.

NYCPS yangiliklari va resurslari:

- Dekabr oyidagi [o'quvchilar uchun imkoniyatlar](#) bilan [The Morning Bell](#) nashrida tanishing.
- Qo'shimcha yangiliklar va resurlar bilan tanishish uchun NYCPSni onlayn kuzatib boring: [Facebook](#), [Instagram](#), [X](#) va [YouTube](#).
- Shahar meri Erik Adamsning haftalik videolarini ko'rish uchun [merning YouTube sahifasiga](#) tashrif buyuring. Siz bevosita meriya idorasidan olinadigan [yangilanishlarni olish uchun ro'yxatdan o'tishingiz](#) mumkin.

NYCPS oilalari: Agar siz ushbu xabarnomani boshqa olishni xohlamasangiz, iltimos [obunadan chiqing](#).